

**BO'LAJAK O`QITUVCHILARNI XALQ PEDAGOGIKASI VOSITASIDA  
MA`NAVİYATINI RIVOJLANTIRISHNING İJTİMOİY-PEDAGOGİK ZARURIYATI**

Alimova Shamsiya Raximovna

Buxoro Davlat Universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

**СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ  
ДУХОВНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ НАУЧНОЙ ПЕДАГОГИКИ**

Алимова Шамсия Рахимовна

Бухарский Государственный Университет Базовый докторант 2 ступени

**THE SOCIAL-PEDAGOGICAL NEED TO DEVELOP THE SPIRITUALITY OF  
FUTURE TEACHERS THROUGH PUBLIC PEDAGOGY**

Alimova Shamsiya Rakhimovna

Bukhara State University 2nd stage basic doctoral student

*Annotatsiya: Ushbu maqolada bo`lajak o`qituvchilarning ma`naviyatini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zarurati ekanligini inobatga olinib ulardan kasbiy-pedagogik tayyorgarligi darajasini oshirishni taqozo etayotgan bir paytda ta`lim-tarbiya borasida xalqimiz tomonidan yaratilgan pedagogik qarashlar va g`oyalar, milliy odob-axloq an`analari, milliy qadriyatlarni o`zida aks ettiruvchi xalq pedagogikasini ilmiy o`rganish, tahsil qilish va hayotga tatbiq etish hamda kelgusi avlodga yetkazish kabi dolzarb masalalar ko`rib chiqilgan.*

*Kalit so`zlar: xalq og`zaki ijodi, ta`lim, tarbiya, axloqiy tushunchalar, sharqona urf-odatlari, pedagogic zarurat*

*Социально-педагогическая необходимость развития духовности будущих учителей средствами народной педагогики*

*Аннотация: В данной статье, принимая во внимание, что развитие духовности будущих учителей является социально-педагогической необходимостью, требуя от них повышения уровня профессионально-педагогической подготовки, создаются педагогические взгляды и представления нашего народа относительно образования и воспитания, национальные были рассмотрены такие актуальные вопросы этики, как научное изучение, анализ и внедрение народной педагогики, отражающей традиции, национальные ценности и передающей их следующему поколению.*

*Ключевые слова: фольклор, образование, воспитание, нравственные представления, восточные традиции. педагогическая необходимость*

*The socio-pedagogical necessity of developing the spirituality of future teachers through folk pedagogy*

*Abstract: In this article, taking into account that the development of the spirituality of future teachers is a socio-pedagogical necessity, while requiring them to increase the level of professional-pedagogical training, pedagogical views and ideas created by our people regarding education and upbringing, national ethics topical issues such as scientific study, analysis and implementation of folk pedagogy reflecting traditions, national values and passing it on to the next generation were considered.*

*Key words: folklore, education, upbringing, moral concepts, oriental customs. pedagogical necessity*

Jamiyatning zamonaviy talabi ta`limning ijtimoiy o`rnini yuksaltirish uni sifat jihatdan yangilashni taqozo etmoqda, Pedagogikada bu muammo asosiy jihatlardan biri bo`lib - ta`lim maqsadi sifatida bo`lajak o`qituvchi madaniyatini shakllantirishda ko`rib chiqiladi. Bo`lajak o`qituvchini kasbga tayyorlashning butun tizimini sezilarli darajada o`zgartirish davr talabi, chunki aynan inson va butun avlodni tarbiyalash orqali madaniyatni saqlash va rivojlantirishda ijtimoiy vositachiligni bajaradi.

Maktab yoshdagi bolalarni yuksak ma`naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo`lgan shaxs qilib tarbiyalashda: o`zbek xalq pedagogikasi va xalq ogzaki ijodi namunalaridan foydalanib, samarali ta`lim texnologiyalariga asoslangan ta`lim dasturlarini takomillashtirishga bo`lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Maktab yoshdagi bolalarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq ogzaki ijodi namunalaridan foydalangan holda maktab ta`lim buyicha samarali o`quv rejasi va o`qitish strategiyalarini ishlab chiqish, tarbiya tizimini jumladan; aqliy, ma`naviy-axloqiy tarbiyani folklor

namunalari orqali singdirish, bu borada koreys, yapon xalqlarining folkloridan foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Misol, yapon bolalari maktabga borgandan tozalash ishlarini o'zları bajaradi, shu usul birinchi o'rinda bolani mehnatga , tartib- intizomga, toza- ozodalikga o'rgatadi va birov mehnatining qadriga yetishga undaydi.

Dunyo xalqlarining ogzaki ijodida ma'lum bir xalqning pedagogik goyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ma'naviy-axloqiy ideallari, xalqning hayotiy tajribasi, milliy an'analari, qadriyatlar va falsafasi o'ziga xos yo'sinda o'sha xalqning ibratlari va qiziqarli hikoyalarida, alla- qo'shiqlari, ertaklari va o'gtilarida tasvirlangan. Bugungi globallashuv jarayonida dunyo miqyosida maktab yoshdag'i bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning innovatsion modellari va mexanizmlarini ishlab chiqish, xalq pedagogikasi va xalq ogzaki ijodi namunalarini pedagogik texnologiyalar va ta'lim strategiyalari bilan o'zaro uygunlikda ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish, maktab yoshdag'i bolalarni sog'lom muhitda ta'lim va tarbiya olishlarini ta'minlash, ularni kelajakdagi ta'limga sifatli tayyorlash dolzarb yo'naliishlardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda bugungi kunda ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, talabalarining jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim, kasb-hunarlarini egallashi, ma'nan-axloqan, jismonan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, yosh avlod qalbida vatanga sadoqat, fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida O'zbekistan Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash" [1.] ustuvor vazifa etib belgilanganligi beziz emas. Mana shu ustuvor vazifalarni amalga oshirishda mamlakatimizda maktab ta'limni yanada rivojlantirish, uning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan muhim meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu darajada xizmat qiladi. Bugungi kunda jahonda ta'limning ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda maktab ta'limi sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi va zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash, maktab yoshdag'i bolalar ma'naviyatini shakllantirish bo'yicha quyidagi yo'naliishlarda ustuvor tadqiqotlar olib borilmoqda: o'quvchi yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning falsafiy, psixologik va pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish; maktab yoshdag'i bolalarni ma'naviy- axloqiy tarbiyalashda foydalaniladigan xalq ogzaki ijodi namunalarini tanlash, tasniflash, ularning samaradorligini aniqlash; ma'naviy-axloqiy

tarbiyanı rivojlantirish metodikasi mazmunini takomillashtirish, uni qo'llash bo'yicha konseptual loyihalashga asoslangan yangi nazariy konsepsiyalarni ishlab chiqish; xalq pedagogikasi namunalarini vositasida o'quvchi yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning o'quv- metodik va didaktik ta'minotini yaratish belgilandi.

Bo'lajak o'qituvchini ma'naviyatini rivojlantirishda o'tmish tajribasi, xalq pedagogikasining ma'naviy-madaniy an'analarni hisobga olgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy tadqiqotlar insonning ma'naviy madaniyatini ajralmas xususiyat sifatida shakllantirishga kompleks yondashuv bilan ajralib turadi. Bo'lajak o'qituvchi madaniyatini har tomonlama shakllantirish masalalari L. N. Akimov, E. T. Ardashirova, I. F. Isaev, V. A. Kan-Kalik, V. G. Maksimov, E. V. Sokolov, E. N. Shiyanova va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rib o'tilgan.

Ma'naviy, madaniyat inson kuchlari va qobiliyatlarini sifat jihatidan rivojlantirishning doimiy takomillashib borayotgan jarayoni, u yoki bu bosqichda erishilgan natijalar majmuidir.

Bo'lajak o'qituvchining Ma'naviy madaniyatini:

birinchi navbatda, uning ichki boyligi, ehtiyoj va qobiliyatlarning rivojlanish darajasi (estetik, axloqiy, aqliy, jismoniy va boshqalar),

ikkinchidan bu qobiliyatlarning amaliy faoliyatda namoyon bo'lish intensivligi darajasi.

O.S.Gazman tomonidan shaxsning asosiy madaniyati kontseptsiyasida insonning umumiyl qobiliyatları, uning g'oyalari va fazilatlarining zaruriy qisimlari ishlab chiqilgan bo'lib, ularsiz insonning genetik jihatdan berilgan iste'dodlarini ijtimoiylashtirish ham, optimal rivojlanishi ham mumkin emas. Ushbu kontseptsiya insonning o'zi va uning atrofidagi hayat bilan uyg'unlikka erishish imkoniyatini ochib beradigan faoliyatiga qaratilgan. [4.18]. Darhaqiqat, bo'lajak o'qituvchi, madaniyati barcha tarkibiy qismlarning bog'liqligida va o'zaro bir birini to'ldirib borishda shakllanadi. Ijodiy faollik darajasini madaniyatning ko'rsatkichi va uning ma'naviy rivojlanishining natijalaridan biri deb hisoblash mumkin.

Bo'lajak o'qituvchining ma'naviy-madaniyatini shakllantirish muammosini N. B. Krilova falsafiy-pedagogik jihatlariga to'xtalib o'tar ekan madaniyat nafaqat qadriyatlar yig'indisi, balki odamlarning ijodiy salohiyati, ma'naviyati va axloqi ham ekanligini ta'kidlaydi. Bu, shuningdek, odamlarning o'ziga, jamiyatga, o'z faoliyatiga, tabiatga bo'lgan munosabatining sifati [6.36] ekanligi uqtirib o'tadi.

Oliy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik madaniyati xususiyatlarini o'rganish bilan

bog'liq holda I.F.Isaev kasbiy-pedagogik madaniyatning to'rt komponentli modelini ishlab chiqdi: birinchi, aksilogik, komponent bir qator qadriyatlar majmui bilan ifodalanadi. asrlar davomida insoniyat tomonidan yaratilgan; ikkinchisi, texnologik, pedagogik faoliyatning o'ziga xos usuli sifatida ishlaydi; uchinchidan, ijodiy, faoliyatni hisobga oladi. pedagogik masalalarning nostandard, original yechimlari bo'yicha o'qituvchi; to'rtinchisi, shaxsiy, insonning muhim kuchlarini amalga oshirish usulidir [5.42].

Kadrlar tayyorlashga ma'naviy yondashish bo'lajak o'qituvchilarga milliy va umuminsoniy insonparvarlik madaniyatlarni o'zlashtirish zaruriyatini qo'yadi. Butun dunyo ustuvorligi xalqlarning ilg'or an'analarini, turli millat vakillarining ma'naviy merosini tiklashdan boshlanadi.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, kasbiy rivojlanish masalalari shaxsning ma'naviy rivojlanishi muammosi bilan birgalikda o'rganiladi. Pedagogika oliy o'quv yurti talabasining mehnatiga o'ziga nisbatan, shaxsning umumiy fazilatlarini shakllantirishga qo'yildigan talablar ortib bormoqda; barkamol shaxsni ta'lim berib tarbiyalashda umumiy va kasbiy rivojlanish yuqori cho'qqiga ko'tarilishi talab etilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchini har doim o'z-o'zini tarbiyalashi va o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorlab borishi zarur. Bo'lajak o'qituvchining ma'naviy madaniyatini ajralmas xususiyat sifatida shakllantirishga umumiy yondashuv zarurligi asoslanadi. Yondashuvlardagi ba'zi farqlar bilan, ma'naviy rivojlanish bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanish darajasini oldindan belgilab beradi. Talabalarning ma'naviy rivojlanishi va kasbiy tayyorgarligining birligini ta'minlash davr talabi. Shuni inobatga olib, xalq pedagogikasining ma'naviy salohiyatidan o'qituvchilar tayyorlovchi oliy o'quv yurtining o'quv jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq.

Bo'lajak o'qituvchini ma'naviy rivojlanishi va kasbiy tayyorgarligi birligini shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur. Berilgan o'quv jarayon jadvallarida pedagogik amaliyot soatlarini ko'paytirish, olingan nazariy bilimlardan mahorat darslarida foydalanish asosida ko'p qirrali jarayon sifatida mavzuni diagnostika qilish, prognozlashni o'z ichiga olishi. Tadqiqot, maqsad, vazifalarni belgilash, tamoyillari, mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini aniqlash, ob'ektni modellashtirish, jarayonni boshqarish talab etiladi.

Bo'lajak o'qituvchini kasbga yo'naltirishni tashkil etish to'rt yo'nalishda amalga oshiriladi.

- ta'limning asosiy mazmunining axloqiy va estetik imkoniyatlaridan foydalanish;
- talabalarni o'qituvchilik kasbiga tayyorlash, xalqlarning ma'naviy kamoloti an'analarini birlashtirish;

- estetika bo'yicha maxsus kurslarni joriy etish;

- talabalarni ijodiy faoliyatga, mustaqqil izlanishga jalb qilish.

Bo'lajak o'qituvchining ma'naviy madaniyatini rivojlanish avvalo pedagoglarni san'at yordamida shakllantirish modelini o'rganishga qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Maktab o'qituvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirish zamонавиy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biridir.

Maktab ta'limning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida ta'lim, shaxsning shakllanishi, uning ma'naviyati, axloqi, qadriyat yo'nalishlari, estetik moyilligi, ijodkorligi uchun javobgardir. Ko'p yillar davomida jamiyatda shaxsni shakllantirishga qaratilgan yaxshi yo'lga qo'yilgan ta'lim tizimida muhim qadam bo'ldi. Biroq keyingi yillardagi qayta qurish jarayonlari bu tizimni barbob qildi. Zamонавиy maktabning ko'p qirrali faoliyatida asosiy e'tibor tarbiyaviy jihatga qaratiladi. Bu holat o'quvchilarning ma'naviy salomatligiga ta'sir qilmasligi mumkin edi. O'qituvchilar va psixologlarning ta'kidlashicha, qarama-qarshilik tobora keskinlashib bormoqda.

Bo'lajak o'qituvchi ma'naviy madaniyatini shakllantirish bo'yicha uch bosqichni ko'rsatamiz.

Birinchi bosqich: Jamiyatda odamlar orasida adolatli ma'noli munosabatda bo'lish, atrof-muhitga, tabiatga va hayvonlarga hurmat nazari bilan qarash.

Bizgacha qolgan bebahoh asarlar, boy tarixiy meroslar, xalq ijodiyoti va vogelik hodisalarini ruhan, hissiy idrok eta olish. Bunday yuksak tajribalardan butun faoliyat jarayonida foydalanib bilish. faoliyat davomida kasbiy salohiyatni baholab borishda o'z-o'zini kuzatish metodidan foydalanish. Ya'ni, yig'ilgan tajribalarni nazorat qilib tahlil qilib olish.

Bo'lajak o'qituvchining pedagogic qobiliyatdagi ma'naviy yuksaklik darajasini ta'lim muassasasida amaliyot o'tash davridan amaliyot rahbarlari(Pedagog psixolog) nomonidan nazoratga olish talab etiladi.

Bo'lajak o'qituvchi tomonida yo'l qo'yilayotgan har bir kamchilik qayt qilib borilishi va kamchilikni talabaga yetkaza olish. o'quvchi va o'qituvchi o'rtaida uchraydigan muammoli vaziyatlardan pedagogic mahoratni ishga solib vaziyatdan chiqa olish qobiliyatini rivojlanish kerakligini uqtirish.

Ikkinchi bosqich - Bo'lajak o'qituvchi asosiy ma'lumotni ajratib ko'rsata olishi, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantrib bora olish qobiliyat. Analistik va sintetik faoliyat

orgali idrok etilgan tajribalarni idrok etish jarayonini o'zlashtirish usuli sifatida fikrlash, tasavvur va fantaziyani rivojlantirish asosida. musiqa asarlarining axloqiy va estetik mazmuni anglash.

Uchinchi bosqich – barcha egallagan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarini eksteriorizatsiya qilish asosida o'z-o'zini anglash va o'zini o'zi boshqarishni faollashtirish orqali ijodiy faoliyat jarayonida maktab o'quvchilarining axloqiy, estetik va madaniy fazilatlarini shakllantirishga undash. Shakllangan ma'naviy axloqiy-estetik idealga muvofiq hayot tarzini izga qo'yish.

Xulosa: Qur'oni Karim, Hadisi shariflarda, Yusuf Xos Hojibning»Qutadg'u bilig», Ahmad Yassaviyning «Xikmatlar», Maxmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk», Kaykovusning «Qobusnoma», Al-Zamaxshariyning «Nozik ibora», Ahmad Yugnakiyning»Hibbatul-haqoyiq», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Sa'diy Sheroziyning «Guliston», «Bo'ston», Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yohud axloq» Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», kabi noyob asarlar Bo'lajak o'qituvchilarni ma'navan tarbiyalanishlarida qimmatli manba sifatida xizmat qiladi. Ayni haqiqatki xalqimiz o'tmisht tarixida erishgan madaniy boyliklardan axloqiy qarashlar va qoidalardan samarali foydalanmasdan turib milliy kadriyatlarni tushunib yetadigan, xalqparvar va yurtsevar farzandlarni, yuksak madaniyat ma'naviyat egasi bo'lgan yoshlarni kamolatga yetkazish og'r masala demakdir. Ajdodlarimiz bizgacha qoldirgan merosda barcha davrlar uchun noyob hayratomuz, ilg'or fikrlar borki, bu fikrlar bugungi taraqqiyotimiz, rivojlanishimiz yo'lida misilsiz ahamiyatga ega. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan daholarimiz jamiyatda insonning tutgan o'rni, yashashning, hayotning ma'nosi, ta'lim-tarbiyasi haqidagi dono, bebaho qimmatli fikrlari bilan xalqimizning ma'naviy dunyosini yuksalishga undagan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni.

«Jadal rivojlanayotgan iqtisodiyot uchun zamonaviy kadr kerak» 25.08.2019 y. Videoselektor materiallari.

Sh.R.Alimova Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 1-son(2022-il,fevral) 57-61 b

Газман, О. С. Педагогика свободы: путь в гуманистическую цивилизацию XXI века / О. С. Газман // Новые ценности образования. - М., 1996. - Вып. 6. -С. 6-38.

Исаев, И. Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя высшей школы: воспитательный аспект / И. Ф. Исаев. - М.; Белгород, 1992. - 102 с.

Крылова, Н. Б. Формирование культуры будущего специалиста / Н. Б. Крылова. - М., 1990. 142 с.

Хайдарова, Х. (2020). РАЗВИТИЕ ВИРТУАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ РОДИТЕЛЕЙ КАК АКТУАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА. InterConf

Sh.Sh.Olimov, Q.F.Abdullayev, B.T. Jo'rayev Pedagogika nazariyasi va tarixi izohli atamalar lug'ati. Buxoro-2022yil. "Fan va ta'lim nashriyoti"